

**“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi saytidan foydalanish, shuningdek, ko‘proq
ishlatiladigan gidrotexnik atamalarining ahamiyati bo‘yicha**

YO‘RIQNOMA

1. **Kanal** – kanal o‘z oqimi bilan oqadigan to‘g‘ri shaklli sunniy o‘zanga ega bo‘lgan suv o‘tqazgich.
2. **Inshoot** – *soorujenie* – suv manbalaridan foydalanish uchun suvning yemirish ta‘siriga qarshi kurashish maqsadida quriladigan suv o‘tqazgich.
3. **Gidrotexnik** – suvdan to‘g‘ri foydalanishga mutasaddi shaxs.
4. **Suv inshootlarining tuguni** – *gidrouzel* – daryo yoki kanalning bir yerida quriladigan bir nechta gidrotexnika inshootlar majmui.
5. **Gabion** – *gabion* – metal to‘rdan yasaliib, ichiga tosh to‘ldirilib yaqqik ko‘rinilshidagi konstruksiya.
6. **Suvni geometrik balandlikka ko‘tarish** - *geometricheskaya vysota podyoma vodi* – nasos yordamida suv chiqariladigan kanal boshidagi suv sathi bilan sug‘orish manbasidagi suv sathi orosidagi masofa.
7. **Gidravlik perimetr** – kanalning suv bilan ho‘llanib turuvchi ko‘ndalang kesim yuzasining perimetri.
8. **Bosh inshoot** – *golovnoe soorujenie* – magistral kanal boshida qurilgan, manbadan olinadigan suvni sozlab turadigan gidrotexnik inshoot.
9. **Gidrotexnik qulfak** – gidrotexnicheskiy zatvor.
10. **Sug‘orish gidromoduli** – *gidromodul orositelnyy* – biror bir ekinni o‘suvs davrida 1 gektar yerga beriladigan suv miqdori.
$$q = \frac{M}{86,4 \cdot T} \text{ l/s ga}$$
11. **Suv berish gidromoduli** – *polivnoy gidromodul* – biror bir ekinni bir marta sug‘orish uchun 1 gektarga beriladigan solishtirma suv miqdori. $q_c = \frac{M}{86,4 \cdot t} \text{ l/s ga}$
12. **Kelitirilgan gidromodul** – *privedyonnyy gidromodul* – keltirilgan gektarga bir marta sug‘orish uchun beriladigan solishtirma suv miqdori. $q_{pr} = \frac{L \cdot M}{86,4 \cdot t} \text{ l/s ga}$ L – protsent
13. **Foydasiz suv xajmini sathi** – *gorizont mertvogo obyoma*.
14. **Tarnov** – *lotok* – ochiq nov – ariq o‘rnida foydalanishi uchun ishlatiladi.
15. **Meliorativ xarita** – *meliorativnaya karta* – sug‘oriladigan maydonning meliorativ xolatini tavsiflovchi ma‘lumotlar tasvirlangan xarita.
16. **Meliorativ yer maydoni** – *meliorativnyy fond* – biror turdagi meliorativ tadbirga muxtoj bo‘lgan maydon.
17. **Gidrometrik ko‘priq** – *most gidrometriceskiy* – kanal va daryolarda suv sarfini o‘lchash maqsadida qurilgan ko‘priq.
18. **Suvning loyqaligi** – *mutnost vodi* – 1 m³ suvdagi loyqaning og‘irligi protsent bilan o‘lchanadi.
19. **Nasos** – tashqi kuch yordami bilan xarakatga keltiruvchi va suyuqlikni bir joydan ikkinchi joyga qo‘chirish uchun xizmat qiladigan mashina.
20. **Nasos stansiya** – suyuqliklarni bosim ostida haydaydigan inshoot, mashina va qurilma majmuasi.

21. **Pastki bef** – *nijniy bef* – gidrotexnik inshootlarni pastki qismlari.
22. **Sug'orish normasi** – *orositel'naya norma* – 1 ga ekin maydoniga sug'orish mavsumida beriladigan suv miqdori – m^3/ga
23. **Zax qochirish me'yori** – *norma osusheniya* – sho'r bosgan sug'oriladigan yerlarda sizot suvlarini sathini tuproqning yuqoriy qatlami sho'rланmaydigan va botqoqlanmaydigan bo'lishini ta'minlaydigan eng past joylanish chuqurligi.
24. **Sug'orish me'yori** – *polivnaya norma* – bir marta suv berish m'eri. Ekin ekilgan 1 ga maydonni 1 marta sug'orish uchun sarflandigan suv miqdori. m^3/ga
25. **To'gon** – *plotina* – sunniy yoki tabiiy suv yo'llarini to'sish uchun turli materiallardan quriladigan gidrotexnik inshoot.
26. **Umumiy yer maydoni** – *ploshad brutto* – yalpi yer maydonidan ekishga yaroqsiz bo'lgan yerlarni (ko'cha, tog'lar va boshqa) chiqarib tashlangan yer maydoni.
27. **Zovur suv oqimining moduli** – *modul drenajnogo stoka* – vaqt birligida muayan birlikdagi maydondan zovurga keladigan suv sarfi l/s (0,15-0,25 l/s) sho'r yuvish davrida. (0,5-0,65 l/s)
28. **Oqim moduli** – *modul stoka* – 1 km^2 maydondan oqib keladigan litr hisobidagi suv sarfi.
29. **Sug'oriladigan maydon** – *oroshaemaya ploshad* – muayan sug'orish tizimlari xizmat qiladigan maydon.
30. **Suv tushirgich** – *perepad* – suv oqishi yuqoridan pastga keskin tushadigan yerda quriladigan pog'onali gidrotexnik inshoot.
31. **Sharshara tezoqar** – *perepad bistrotok* – tutashtiruvchi inshootlaridan biri, bu inshootda suv avval havoda xarakat qilib, tez oqar novga tushadi, so'ngra uning novdan, ajralmagan holda xarakat qiladi, sharsharalarda esa suv faqat havo orqali xarakat qilib joyga tushadi.
32. **Suvdan foydalanish rejasi** – *plan vodopolzovaniya* – suvni to'g'ri taqsimlash, ekin maydonlarini o'z vaqtida sug'orishga tayyorlab qo'yish.
33. **Sho'r yuvish** – *promivka zemel* – ekin ekiladigan va sho'rланgan maydonlarni tuproqdagi zararli tuzlar miqdorini kamaytirish maqsadida suv bostirib sug'orish.
34. **Bo'ylama kesim** – *prodolniy profil* – gidrotexnik inshoot yo'nalishini uzunasiga bo'ylab olingan tik qirqimini ko'rinishi.
35. **Ko'ndalang kesim** – *poperchniy profil* – gidrotexnik inshoot yo'nalishining ekin bo'ylab olingan tik qirqim ko'rinishi.
36. **Pezometrik sath** – bosimli suv qatlami burg'i yordamida ochilganda suv sathi quduk bo'ylab yuqoriga ko'tarala boshlaydi, bu bosimli suv bosimi deb ataladi.
37. **Kanalning o'lchovlari** – *razmeri kanalov* – kanalning o'lchamlari umumiy qabul qilingan qo'yidagi xarflar bilan belgilanadi. b – kanal tubining eni, V – kanal ustining eni, N – kanalning chuqurligi, h – kanaldagi suvning chuqurlagi, m – kanalning ichki qiyalik koeffitsienti, V – suv oqimining tezligi, m/sek, ω – jonli kesim yuzasi, m^2 , R – gidravlik radius
38. **Suv sarfi** – *rasxod vodi* – kanal kesimi orqali har bir sekunda oqib o'tgan suv miqdori, m^3/sek
39. **Kanalning sof suv sarfi** – *rasxod kanala netto* – suv isroflari hisobga olinmagan holda biror maydonni sug'orish uchun zarur bo'lgan suv sarfi $Q_k = \omega \cdot q$ m^3/sek

40. **Gidrotexnik inshootlarni hisoblash** – *raschet gidrotexnicheskix soorujeniy* – gidrotexnika inshootlarining o'lchamlari va turg'unligi hamda ularning ayrim qismlarining mustaxkamligini aniqlash maqsadida bajariladigan hisob-kitob ishlari.
41. **Reper** – yer sirtidagi ayrim kuqtalarning balandligini ko'rsatib turadigan doimiy belgi.
42. **Suv taqsimlash inshooti** – *vodoraspredelitelnoe soorujenie* – bir kanaldan ikkinchisiga suv olish maqsadida ishlatiladigan maxsus inshoot.
43. **Akveduk** – jar, dara, daryo, yo'l orqali nov yoki ko'priksimon ko'rinishdagi suv o'tkazuvchi inshoot.
44. **Tezoqar** – *bistrotok* – beflarni tutashtiruvchi inshootlardan biri.
45. **Suv urilma** – *vodoboy* – suv tushirgich (tanloma) dan keyin joylashgan daryo o'zani yoki kanalning mustaxkamlangan qismi.
46. **Suv taqsimlagich** – *vododelitel* – daryo, kanal kabi katta suv manbalaridan kichik ariq, va mayda kanallarga suv taqsimlash uchun xizmat qiladigan gidrotexnik inshoot.
47. **Suv olish inshooti** – *vodozabornoe soorujenie* – ochiq suv manbalaridan (daryo, ko'l, suv ombori) suv olish va chiqarishni amalga oshiradigan gidrotexnik inshoot.
48. **Suv olish bo'g'ini** – *vodozaborniy uzal* – magistral kanallarni daryodan suv oladigan joylaridagi qurilgan gidroinshoot.
49. **Showva** – *vodoskat* – suv nishabi, suv sharillab oqadigan nishablik yoki qiyalik.
50. **Suv tushirgich** – *vodosliv* – suv tushiradigan qurilma.
51. **Daryo xavzasi** – *basseyne reki* – suvlar yig'ilib daryo bo'luvchi joy.
52. **Gidrotexnik beton** – *gidrotexnicheskii beton* – gidrotexnika inshootlariga ishlatiladigan suv o'tqazmaydigan, egiluvgan, sovuq va issiqqa hamda suvdagi agressiv moddalarning ta'siriga chidamli beton.
53. **Vegetativ davri** – *vegetativniy period* – bir yillik o'simliklar uchun urug'ining unishidan boshlab, yangi urug'i pishib yetilguncha qadar bo'lgan davr.
54. **O'suv davridagi sug'orish** – *vegetatsionniy poliv* – ekinlarni o'sish davrida sug'orish, o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon.
55. **Pirildiq** – *vertushka* – suv oqimining tezligini o'lchash uchun ishlatiladigan asbob.
56. **Daryoning suvligi** – *vodnost reki* – muayyan vaqt oralig'i (o'n kun, oy, bir yil) da daryodan oqib o'tadigan suv xajmi.
57. **Suv kadastri** – *vodniy kadastr* – mamlakatning suv obyektlarini har tomonlama va batafsil tavsiflovchi ma'lumotlar.
58. **Suv berish** – *vodopodacha* – 1 ga sug'orish maydoniga berilgan suv xajmi
59. **Suv tushiruvchi to'g'on** – *vodoslivnaya plotina* – to'g'on ustidan suv o'tib to'qilib turadigan inshoot.
60. **Nasosni so'rish balandligi** – *visota vsasivaniya nasosa* – nasos o'rnatilgan joyning sathi bilan mazkur nasos so'rib olishi mumkin bo'lgan suyuqlikni sathi orasidagi masofa (m).
61. **Gidravlik zarb** – *gidravlicheskiy udar* – bosimli sharoitda ishlaydigan quvurlarda uchraydigan xodisa.

62. **Gidravlik nishablik** – *gidravlicheskiy uklon* – ma'lum masofada turli qarshiliklarni yengish uchun sarf bo'ladigan suv bosimining mazkur masofaga nisbati $\frac{h}{L} = j$
63. **Gidrogeologik rayonlashtirish** – *gidrogeologicheskoe rayonirovanie* – bir xil xususiyatga ega bo'lgan yer osti suv maydonlarini ajratish.
64. **Gidrograf** – daryo yoki kanalda suv sarfini ko'rsatadigan egro chiziq.
65. **Drenaj** – zax qochirish majmuasi, qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishiga mo'a'tadil sharoit yaratilish maqsadida sug'oriladigan maydonda sizot suvlarini sathini pasaytirish.
66. **Tik zovur** – *vertikalniy drenaj* – burg'i bilan chuqur qazilgan quduqdan qurilgan zovur.
67. **Gorizontal zovurlar** – ochiq va yopiqqa bo'linadi.
68. **Zovur suvlari** – *drenajnie vodi* – tarkibida xar xil tuzlar eritmasi bo'lgan sho'r suvlar.
69. **Qaynama** – *dyuker* – kanal suvini temir yo'l, qatnov yo'llari, ko'tarma va boshqa to'siq tagidan olib o'tishga mo'ljallangan yopiq suv o'tqazuvchi inshoot.
70. **Suv omborini sig'imi** – *yomkost vodoxranilisha* – suv omborining m³ yoki km³ bilan o'lchaniladigan foydali xajmi.
71. **Temir beton lotoklar** – *jelezobetonnie lotki* – temir betondan yasalgan, uzunligi 6-8 m bo'lgan ayrim qismlardan tashkil topgan novlar.
72. **Suvning qattiqligi** – *tyostkost vodi* – suvning o'z tarkibidagi kalsiy va magniy elementlari miqdoriga nisbatan aniqlovchi sifati.
73. **Surma qulfak** – *zadvijka* – suv manbalarini berktadigan qurilma.
74. **Yer osti suvlar zaxirasi** – *podzemnie vodi* – suvli qatlamlardagi gravitatsion suv xajmi.
75. **Tuproqning sho'rlanishi** – *zasolenie pochvi* – suvda eriydigan zararli, ayniqsa natriyli to'zlarning tuproq yuzasi va qatlamida to'planishi.
76. **Ta'mirlash qulfagi** – *remontniy zatvor* – qulfak ta'mirlanayotganda vaqtincha ishlatiladigan qulfak.
77. **Muz tiqini** – *zator* – daryo o'zanida muz to'planib qolishi.
78. **Suv omborining sathi** – *zerkalo vodoxraniliya* – suv omborida to'plangan suvning satxi.
79. **To'siq** – *zub* – tuproqdan qurilgan to'g'on va qurilmalarning konstruktiv elementlari sizib chiqadigan suv yo'llarini cho'zish uchun flyutbet (inshoot asosi) ostiga o'rnatiladigan to'siq.
80. **Loyqa** – *il* – tuproqning mexanikaviy tarkibidagi diametri 0,001 mm bo'lgan cho'kma.
81. **Daryo boshi** – *istok* – suv manbai, daryoning boshlanishi nuqtasi.
82. **Kavitatsiya** – suyuqlik uzluksizligini buzilish va bosimning tang xolatga kelish.
83. **Kadastr** – biror narsa xaqidagi ma'lumotlar.
84. **Kaskad** – bir necha pog'onali urilib to'shadigan sunniy sharshara.
85. **Gidrotexnik inshootlarning sinfi** – *klass gidrotexnicheskix soorujeniy* – inshoot normal ishlashining buzilishi yoki falokat oqibatida xalq xo'jaligiga keltirgan zararni xisoblaganda inshoot salmog'ini tafsifi.

86. **Gidrotexnik inshootlarni sinfi** – *klassifikatsiya gidrotexnicheskix soorujeniy* – gidrotexnik inshootlarni vazifasi, konstruksiyasi, xizmat qilish muddati va ma'suliyatligiga qarab sinflarga bo'linishi.
87. **Konsolli tezoqar** – *konsolniy bistrotok* – ustki befdan, pastki befga nov orqali katta tezlikda suv o'tkazish inshooti.
88. **Konsolli sharshara** – *konsolniy perepad* – beflarni birlashtiruvchi inshootlardan biri.
89. **Irrigatsiya tarmoqlarini foydali ish ko'effitsienti** – *KPD irrigatsionnoy seti* – muayyan muddat ichida dalaga oqib kelgan suv miqdorining sug'orish sistemalining boshidagi berilgan suv miqdoriga nisbati. $KPD = \frac{W_{netto}}{W_{brutto}} = \frac{Q_{netto}}{Q_{brutto}}$
90. **Nasosning foydali ish ko'effitsienti** – *koeffitsient poleznogo deystviya nasosa* – nasosning suvini yuqoriga ko'tarish uchun sarf qilingan energiyaning – uning dvigateldan olgan energiyasiga nisbati.
91. **Sug'orish tarmog'ini foydali ish ko'effitsienti** – *koeffitsient poleznogo deystviya orositel'noy seti* – sug'orish uchun bevosita sarf qilingan suv miqdorini suv manbasidan olingan suv miqdoriga nisbati.
92. **Kontroforsli to'g'on** – *kontroforsnaya plotina* – temir betondan qurilgan bo'lib siqilish, cho'zilash, va egilishga yaxshi qarshilik ko'rsatadigan to'g'on. Bu to'g'on kontrofors (yoyma va qovurg'alaridan iborat)
93. **Ostona** – *porog* – gidrotexnik inshootlarning suv o'tadigan qismlari.
94. **Stvor** – daryo, kanal o'zanlari va suv oqimining turli qismlarini o'lchash uchun o'zanning biror yerida ma'lum belgi yoki qoziqlar bilan belgilangan yo'nalish.
95. **Harorat choki** – *temperaturniy shov* - materiallarini harorat ta'sirida xajmi o'zgarishidan vujudga keladigan ichki zo'riqishlarning yo'qotish uchun konstruksiya va inshootlarda hosil bo'ldigan tirqish.
96. **Suv chizig'i** – *urez vodi* – suv sathining sohil bilan kesilgan chizig'i
97. **Suv sathi** – *uroven vodi* – suv yuzasining shartli taqqoslanadigan gorizontal tekislikka nisbatan balandligi.